

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7831991>

**O. Suvonov**

*GulDU katta o'qituvchisi*

Shaxs kamolati o'ziga xos qonuniyatlarga suyanan holda sodir bo'ladi. Biologik va ijtimoiy qonuniyatlar bilan bir qatorda ta'lim-tarbiya qonuniyatlari bola shaxsining kamolatiga ta'sir etadi.

Biologik qonuniyatlarning ta'siri ostida jismoniy, aqliy, ruhiy va ma'lum darajada ahloqiy ulg'ayish amalga oshadi.

Ijtimoiy qonuniyatlar bolaning bilim olishi, kasb egallashi, ijtimoiy faol shaxsga aylanishini jadallashtiradi.

Ta'lim –tarbiya qonuniyatlari aqliy, ahloqiy hamda kasbiy kamolatni ta'minlashga hissa qo'shadi. Shuni ham ta'kidlash joizki, barcha qonuniyatlarga, shart-sharoitlarga amal qilgan holda tarbiyalangan bola shaxs kamolotining benuqson etib boradi. Bunday yoshlar barkamol avlod deb hisoblanib kelinmoqda. Pedagogika va psixologiya fanlarida shaxs kamoloti boshqa jonzotlarga nisbatdan ancha sekin amalga oshishi takidlanadi. Buning asosiy sababi inson kamolotining ko'p qirraligi, murakkabligi, aqliy, axloqiy, ruhiy, anatomik-fizialogik omillarga bog'liqligida deb hisoblanadi. Har qalay, to'laqonli barkamol shaxsga aylanganiga qadar yigirma yilga yaqin vaqt o'tadi.

Bola shaxsining kamolga etishi bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi. Go'daklik, bolalik, o'smirlik, o'spirinlik, balog'at davrlari o'ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi va ta'lim-tarbiyada har bir davrga alohida e'tibor berishlikni taqozo etadi. Bola yoshini davrlashtirish ilmiy manbalarda yana bir qancha mayda bosqichlardan iborat ekanligi isbotlangan. Ammo jiddiy o'zgarishlar yuqoridagi davrlashtirishdan aniqlansa bo'ladi.

Ma'naviy etuk insonni tarbiyalashning ayrim xususiyatlarini chuqur anglash uchun avvalo barkamol shaxs, komil inson tushunchalarining mohiyatini bilish, o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash foydadan xoli bo'lmaydi. Bu tushunchalar bir-biriga bog'liq bo'lgan holda o'ziga xos ma'nolarga ham ega. Ayrim hollarda ular orasidagi kuchli bog'liqlikdan kelib chiqib, bir xil ma'noda ishlatib yuboriladi. Bunda ilmiy, nazariy xatoga yo'l qo'yilmasada, mantiqiy notugallik sezilib turadi.

Barkamol tushunchasi –kamolga, balog'atga erishgan, voyaga etgan degan ma'noni anglatadi. Bunda albatta jismoniy, aqliy, axloqiy, ruhiy va kasbiy ulg'ayish etakchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Bola tug'ilgandan keyin shaxs kamolotining bosqichlarini o'tish orqali voyaga etadi. Voyaga etgan shaxs jismoniy jihatdan ulg'aygan, aqli to'lishgan va har qanday ilm

sohasini egallashga qodir bo'lgan, axloqiy fazilatlarini mukammal bajara oladigan, ruhiy jihatdan o'zini tutgan kishiga aylanadi. Bir gap bilan aytganda aqliy, axloqiy, ruhiy va jismoniy jihatdan rivojlangan bo'lib, o'zi uchun va jamiyatga to'la foyda keltirishi mumkin bo'lgan darajaga erishadi. Bu darajaga etgan kishi barkamol shaxs hisoblanadi.

Barkamollikdan keyin ham shaxs kamoloti davom etadi. Endi har bir inson komillikka intiladi.

Komillik–kamolotga erishgan, bekami ko'st, to'la darajada ulg'aygan va mudom aqliy, ahloqiy, ruhiy va kasbiy jihatlardan takomillashib borishni o'zini doimiy turmush tarziga aylantirgan etuk shaxslar tushuniladi.

Komil inson o'z oldiga turli maqsadlarni qo'yadi. Shu maqsadlarga erishish jarayonida xilma –xil vazifalarni bajaradi. Zehni, iste'dodini, talantini ishga solgan holda mudom ezgulikka intiladi. Irodasidan to'la foydalanib yangidan –yangi istiqbol rejalarni amalga oshiradi.

O'zida mavjud bo'lgan qobiliyat va iste'dodlarini shakllantirib boradi. O'z imkoniyatlaridan to'la oxirigacha foydalanishga harakat qiladi. Pirovard natijada faoliyatining mahsuli sifatida ma'lum iz qoldiradi.

Inson o'zidan qoldirgan izi bilan komillikning qanday darajasiga erishganligi belgilanadi. Buyuk bobokalonlarimiz Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Imom Ismoil al-Buxoriy, Amir Temur, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek, Alisher Navoiy va boshqa yuzlab ilm–fanda, adabiyot va san'atda, iqtisod va siyosat olamida o'chmas iz qoldirgan siymolar komillikning yuksak namunalari hisoblanadi [4].

Hozirgi kunda ham shaxs komilligining eng yuqori darajalariga erishgan zamondoshlarimiz ko'plab uchraydi.

Yoshlarning komillikka intilishlarida ibrat-namunani «g'arbdan yoki sharqdan» izlashlari shart emas deb hisoblash o'rinlidir. Har bir kishi o'zligini anglasa, tarixini bilsa, kelajakka ishonch bilan qaray olsa imkoniyati darajasida fidoyilik ko'rsatsa, elim deb, yurtim deb yonib yashasa, imon e'tiqodda mustahkam tursa, kechagi, bugungi va ertangi kuni uchun shukuronalik qilsa, mushkulot oldida sabr-bardoshli bo'lsa komillik martabasiga martabasiga muayassar bo'lishi muqarrar.

O'tmishdagi buyuk ajdodlarimiz komillikning ilohiy ne'mat deb bilganlar. Shuning uchun ham komillik saralangan, Ollohning nazariga tushgan insonlargagina nasib etadi deb hisoblaganlar. Pirikomillar, avliyolar, ambiyolar, ulug' payg'ambarlar komillikning oliy darajasini egalaganlarini ta'kiidlaganlar.

Komil insonningartabasi, sifat va belgilariga Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Aziziddin Nasafiy, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy, So'fi Olloyor va boshqa olimu ulamollar baho berganlar.

Alisher Navoiy “Nasoim ul-muhabbat” asarida komil insonlar (avliyolarga) xos xislatlarni sanab o'tgan, ular quydagicha: tavba, halol luqma bilan qanoatlanish, o'z kasbidan topib kun o'tkazish, shariatga rioya qilish, tariqat odobini saqlash,

barchadan o'zini kam deb bilish, qo'pollik qilmaslik, chuchuk tilli bo'lish, rahimdil bo'lish, saxiy bo'lish, mard bo'lish, halimlik, xush hulq bo'lish, rizo-rozilik bilan kun o'tkazish, sabrli bo'lish, riyozat chekishdan qo'rqmaslik horiqulodda xislatlar ko'rsatish" shu xildagi sifatlar yana ko'plab olimlarning ta'limotlarida tavsiflangan.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Abu Abdulloh Muhammad Al-Buxoriy «Hadis» 1 jild, qomuslar bosh tahririyati T,1991
2. Mavlonova R. To'raeva O. Xoliqberdiev K. Pedagogika. T. «O'qituvchi» 2001.
3. Xoshimov K va boshqalar «Pedagogika tarixi» T. «O'qituvchi» 1996.
4. Ya.A. Nurumbekova G'Personal psychology and coaching G' study guide. Gulistan. GulDU.2022.-281b
5. Nurumbekova, Y. (2021). TRAINING OF FUTURE TEACHERS TO PROFESSIONAL EDUCATIVE ACTIVITY ON THE BASEMENT. Journal of Central Asian Social Studies, 2(01), 66-74.
6. Nurumbekova, Y., & Gulistan, U. Z. B. E. K. I. S. T. A. N. (2019). A TEACHER-EDUCATOR EDUCATIONAL INITIATIVE. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences.
7. Nurumbekova, Y. (2019). Importance of Technologizing Teacher-Mentor's Professional Activity. Eastern European Scientific Journal, (1).
8. Nurumbekova, Y. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORGARLIGI. Архив научных исследований, 2(1).
9. Anarmatovna, N. Y., & Ummatkulovna, X. Z. (2022). IMPROVING THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND MORAL-SPIRITUAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 1832-1838.